

ENTEROBIOZ KASALLIGINING TARQALISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATINI O'RGANISH.

Andirbayeva G.S.

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "Sog 'lijni saqlashni boshqarish va jamiyat salomatligini saqlash" mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annatociya: Bu maqolada enterobioz kasalligi haqida va uning tibbiyotdagi ahamiyati misollar bilan ko'rsatiladi. Shuningdek, bu kasallik ichak disfunksiyasiga, allergik reaksiyalarni va umumiy intoksikatsiyani keltirib chiqarishi mumkinligi to'g'risida hamda enterobiozning keng tarqalishiga gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va immunitetning pastligi sabab bo'lishi, kasallikning epidemiologiyasi, klinik belgilari va profilaktikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Enterobioz, ostritsa, disfunksiya, gigiyena, profilaktika, global tahlil, ichak mikroflorasi, epidemiologiya, JSST, klinik manzara, genetik omil.

So'nggi yillarda enterobioz tarqalishi bilan bog'liq global tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu kasallik nafaqat rivojlanmagan mamlakatlarda, balki iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda ham uchramoqda. Tadqiqotlar enterobozning yuqori yuqumliligin va bolalar hamda kattalar orasida tez tarqalishini tasdiqlaydi. Enterobiozning asosiy tarqalish yo'llari orasida maishiy-kontakt yo'l (ifloslangan qo'llar, buyumlar, to'shaklar) va chang orqali yuqishi ham bor. Ayniqsa, gigiyena qoidalariga to'liq rioya qilinmagan joylarda kasallikning surunkali shakllari uchraydi. [4,8,9]

Bundan tashqari, enterobioz bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, ularning psixologik va akademik rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, enterobioz bilan kasallangan bolalarda diqqat va konsentratsiya buzilishi, uyqusizlik, charchoq va ta'lim natijasining pasayishi kuzatiladi. Bu esa kasallikning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ham ega ekanligini anglatadi.[1,3]

Enterobiozning tarqalishi turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ham bog'liq bo'lib, aholi daromad darajasi past bo'lgan hududlarda kasallik yuqori darajada uchraydi. Tadqiqotchilar enterobiozning keng tarqalishiga sanitariya sharoitlarining yetarli emasligi, gigiyena ko'nikmalarining pastligi va turmush sharoitlarining qoniqarsizligi sabab bo'lishini ta'kidlaydilar.[4,5,8] Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida va bolalar orasida kasallikning keng tarqalishi kuzatiladi.

Shuningdek, enterobioz immunitet tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan bo'lib, uzoq muddatli infeksiyalar organizmning boshqa kasallikkarga moyilligini oshirishi mumkin. [5,7] Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, enterobioz bilan kasallangan bolalarda allergik kasalliklar, jumladan bronxial astma va atopik dermatit xavfi yuqori bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar enterobiozning immunologik ta'sirlarini ham o'rjanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Enterbius vermicularis paraziti organizmda

uzoq muddat saqlanib qolganda, immunitetning yallig'lanish bilan bog'liq bo'lgan javob reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin. Bu esa organizmning boshqa infeksiyalarga qarshi turish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. [6,7] Bundan tashqari, enterobiozning organizmdagi ichak mikroflorasiga ta'siri ham tahlil qilinib, bu parazitning ichak dispiozini keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan.[9,6]

Enterobioz dunyo bo'yab keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, gigiyena sharoitlari past bo'lgan hududlarda yuqori darajada uchraydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, enterobioz bilan kasallanganlarning ko'pchiligi 5-14 yoshli bolalar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turmush sharoitlari, ta'lim muassasalaridagi gigiyena darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy omillar enterobiozning tarqalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[5,4,3]

Shuningdek, enterobiozning yuqori tarqalishi maktabgacha yoshdagi bolalar orasida kuzatiladi, chunki ular orasida yaqin kontakt, gigiyena ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi va umumiyligi o'ynichoqlardan foydalanish kasallikning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. [2,4] Bundan tashqari, oilaviy infeksiyalar enterobiozning davomiyligini oshiruvchi omil hisoblanadi, ya'ni oilaning bir a'zosi kasallikni yuqtirgan bo'lsa, boshqa a'zolarga ham yuqish ehtimoli yuqori bo'ladi.[6,8]

Boshqa parazitar kasalliklarga nisbatan enterobiozning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning qisqa hayot sikliga ega ekanligi bo'lib, bu tez-tez reinfeksiyaga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar uy sharoitida umumiyligi gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilinmasa, oilaviy reinvaziya darajasi juda yuqori bo'lishi mumkin. [3,2,9]

Tadqiqotlarga ko'ra, enterobioz rivojlangan mamlakatlarda 30-60% bolalar orasida uchrashi mumkin, ba'zi joylarda esa bu ko'rsatkich 90% gacha yetadi [4] Shuningdek, enterobiozning tarqalishining mavsumiyligi ham kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, enterobiozning eng yuqori tarqalishi bahor va kuz oylariga to'g'ri keladi, bu esa iqlim sharoitlari va bolalarning guruh holatida ko'proq bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi. 5.

O'zbekistonda enterobioz, geminolepidoz va askaridoz kabi gelmintozlar ko'proq uchraydi. Enterobioz bilan kasallanish 100 ming aholiga taxminan 1100 holatni tashkil etadi. Ularning 90% ini 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kasallanish ko'rsatkichlari quyidagicha: Ayrim viloyatlarda kasallanishning intensiv ko'rsatkichlari Farg'ona viloyatida - 5,1, Toshkent viloyatida 4,8, Jizzax viloyatida - 4,6, Qashqadaryo viloyatida - 3,4, Toshkent shahrida - 2,2, Xorazm viloyatida - 1,5, Samarqand viloyatida - 1,1 va Qoraqalpog'iston Respublikasida - 1,0 ekanligi aniqlangan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, enterobioz bugungi kunda bolalar orasida eng ko'p uchraydigan parazitar kasalliklardan biri bo'lib, uning yuqori tarqalish darajasi sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilinmasligi, bolalar jamoalarida to'g'ridan-to'g'ri aloqa va muhitning ifloslanishi bilan chambarchas bog'liq. Kasallikning keng tarqalganligi uni erta aniqlash, samarali davolash va profilaktik choralarini amalga oshirishni talab qiladi.

Enterobiozning tibbiyotdagi ahamiyati, avvalo, uning epidemiologik xavfi, sog'lom avlod shakllanishiga salbiy ta'siri va sog'liqni saqlash tizimiga yuk bo'lishi bilan belgilanadi. Shu

sababli, kasallik tarqalishini kamaytirish uchun kompleks profilaktik tadbirlar, gigiyenik tarbiya va muntazam skrining tekshiruvlari muhim sanaladi.

Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar enterobiozning dolzarbligini asoslash bilan birga, uning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аракельян р. С. И др. Клинико-эпидемиологические аспекты энтеробиоза у детей //permский медицинский журнал. – 2023. – т. 40. – №. 1. – с. 129-135.
2. Аракельян р. С. И др. Характеристика лямблиоза и энтеробиоза у детей астраханской области //детские инфекции. – 2019. – т. 18. – №. 2. – с. 49-53.
3. Абдурахимова к. Ш. Заболеваемость и физическое развитие детей дошкольного возраста, пораженных энтеробиозом //вестник новосибирского государственного университета. Серия: биология, клиническая медицина. – 2010. – т. 8. – №. 3. – с. 65-69.
4. Байрамдурдыева а. И др. Энтеробиоз у детей разных возрастных групп //международный научно-исследовательский журнал. – 2023. – №. 3 (129). – с. 49.
5. Даминова м. Н. И др. Кишечные паразитозы у детей: клиническое значение //журнал гуманитарных и естественных наук. – 2023. – №. 1. – с. 107-110.
6. Закирова у. И. Особенности распространения гельминтозов у детей а так же меры их профилактики //интернаука. – 2018. – №. 15-1. – с. 29-30.
7. Качугина л. И др. Новые подходы при массовой дегельминтизации детей от энтеробиоза //журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 4, 1 (81). – с. 50-52.
8. Мухаммадиева л., рустамова г. Энтеробиоз у детей: современные проблемы диагностики //international scientific review. – 2020. – №. Lxx. – с. 77-79.
9. Маматкулов Б. М., Умарова А. М. Заболеваемость гельминтозов и их профилактика (обзор литературы) //journal of science-innovative research in uzbekistan. – 2025. – т. 3. – №. 2. – с. 71-79